

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI



ASOSIY SHARQ TILI
(URDU TILI)

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 - Gumanitar soha

Ta‘lim sohasi: 120 000 - Gumanitar fanlar

Ta‘lim

yo‘nalishlari: 5120100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha)
5120200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo‘yicha)
5120300 – Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)
5120700 – Jahon siyosati (mintaqalar bo‘yicha)
5120800 – Sharq falsafasi va madaniyati
5231000 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha)

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil "13" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "8" 08 dagi 744-sonli buyrug'ining ___ -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Abdurahmonova M.H. – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Janubiy Osiyo tillari kafedrasida dotsenti

Taqrizchilar:

Muhibova U. -Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Janubiy Osiyo tillari kafedrasida mudiri, f.f.d.;

Mirzayeva M. -Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Olmazor akademik litseyi yetakchi o'qituvchisi;

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil "02" 07 dagi "11" -sonli bayonnoma).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Respublikamizda bosqich-bosqich demokratik tamoyillarning ustivorligiga asoslangan yangi jamiyatni qurishga yo'naltirilgan islohotlar doirasida ta'lim-tarbiya ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlab beruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lib, ushbu hujjatlarda zamon talablariga muvofiq bo'lgan barcha shart-sharoitlar va hammadan avval inson manfaatlarining ustuvorligini ta'minlovchi imkoniyatlar, uning ehtiyojlarini amalga oshirish masalalari bilan bir qatorda raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asoslari belgilab qo'yilgan. Chunonchi, PQ-1875-sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hukumat qarorida keltirilishicha "...mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi".

Davlatimizning xorijiy sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotgan bir paytda chet tillarini, jumladan, sharq tillarini mukammal biluvchi, salohiyatli filologlar, tarjimashunoslar, sinxron-tarjimonlarni yetishtirib berish kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimiga chet tillarini o'rgatish bo'yicha xalqaro ta'lim standartlarini joriy qilish va "chet tillarini egallashning Umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash" darajalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqsadlardan kelib chiqqan holda tuzilgan ushbu dastur "Asosiy sharq tili(urdu tili)" bo'yicha bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, to'rt yil davomida o'tiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarning mazmuni, mustaqil ta'lim mavzularini o'z ichiga oladi.

Dasturni tuzishda mamlakatimizda so'nggi yillarda chet tilini o'qitish borasida olib borilayotgan davlat siyosati bilan bog'liq o'zgarish va islohotlar hamda talablar ham e'tiborga olindi. Xususan, yuqorida qayd etilgan hukumat Qarori hamda uning asosida yaratilgan "Xorijiy tillar bo'yicha o'quv fanlaridan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy Talablar"dan kelib chiqqan holda talabalarning chet tilini o'zlashtirish darajasi "**A1 boshlang'ich**" bosqichidan boshlab "**V2 tilni mustahkam egallash va erkin muloqot qila olish**" bosqichigacha bo'lgan ko'nikmalar doirasidagi bilimlarni qamrab olishga qaratildi.

Dastur sharq tillarini o'qitish uchun kommunikativ-faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan, integrativ va salohiyatli yondashuvlarga asoslanish zaruratidan kelib chiqqan holda yaratildi. Xususan, bunda: **kommunikativ-faoliyatli yondashuv** rivojlantiruvchi, funksional va kommunikativ xususiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayonida faollikni kuchaytirishga yordam beradi; **shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** talabani bosqichma-bosqich rivojlanishini kuzatish shaxsiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan; **integrativ yondashuv** talabani turli hil sohalaridan (adaptation, shaxsiy-relevant, umumintelektual va kasbiy) olingan materiallarni bir xil darajada qo'llashni nazarda tutadi; **salohiyatli yondashuv** ma'lum bir daraja va yetarli salohiyatga ega bo'lishga qaratilgan.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Urdu tilini o'qitishdan maqsad – talabalarga hozirgi kunda tili o'rganilayotgan mamlakatda ijtimoiy-siyosiy, mamlakatshunoslik, tarixiy-filologik va maishiy hayot doirasida qo'llanilayotgan zamonaviy xorijiy tilning og'zaki va yozma shaklini erkin qo'llay olish, muloqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lib, 4 yil davomida talaba faol qariyb 5000 ta so'z boyligiga ega bo'lishi kerak.

Urdu tilini o'qitishdagi vazifalar:

- urdu tilida og'zaki dialogik va monologik nutqni tushunish;
- urdu tilida yozma matnlarni o'qish va tushunish;
- urdu tilida yozish;
- urdu tilida ma'lum bir vaziyatda suhbat olib borish;
- urdu tilida gapirib berish, ma'lumot berish, nutq so'zlash;
- ona tili va urdu tilida olib borilayotgan ikki yoqlama suhbat jarayonini sinxron tarjima qilish;
- ma'lumotlar, ma'ruza va nutqlarni ona tilidan urdu tiliga va urdu tilidan ona tiliga sinxron va og'zaki tarjima qilish;
- ona tilidan urdu tiliga va urdu tilidan ona tiliga yozma tarjima qilish *ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.*

Urdu tilini o'rgatishning yakuniy natijasi, talabalar tomonidan quyidagi kompetensiyalarni egallash hisoblanadi:

Umummadaniy kompetensiya:

– ijtimoiy ahamiyatga ega muammo va jarayonlarni ilmiy tahlil etish qobiliyatiga ega bo'lish; Sharq mamlakatlarini o'rganish bilan bog'liq kasbiy va ijtimoiy faoliyatining turli sohalarida gumanitar, ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy, filologik fan metodlaridan amaliyotda foydalanishni bilish;

– filologiya, tarix, iqtisod, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar bo'yicha tayanch va ixtisoslashgan bilimlarga ega bo'lish va kasbiy faoliyatida foydalana olish; tafakkur madaniyatiga ega bo'lish, fikrlarini mazkur bilimlaridan kelib chiqib, ona tili, o'rganilgan sharq va g'arb tillarida yozma va og'zaki shaklda mantiqan to'g'ri shakllantira olish qobiliyatiga ega bo'lish;

– ona tili, o'rganilayotgan sharq va g'arb tillarida yozma va og'zaki muloqot olib borish malakasiga ega bo'lish;

– turli mulohazalarni mantiqan amaliy tahlil etish, ommaviy nutq ko'nikmalariga ega bo'lish, dalil-isbotlar keltira olish, bahs va munozara olib borishni bilish;

– ixtisosligiga oid atamalarni bilish;

– kasbiy va ijtimoiy mazmundagi matnlarni tayyorlash va tahrir etish malakasiga ega bo'lish;

– turli xil etnik va diniy mavzularda konstruktiv suhbat olib borish tamoyillarini mustahkam bilishi hamda ekstremizm va aqidaparastlik illatlariga qarshi turish immunitetiga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy kompetensiya:

– Sharq xalqlari haqidagi ma'lumotlarni tushunish, bayon etish va tanqidiy tahlil etish; asosiy urdu tilida erkin muloqot olib borish; madaniy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy va diniy-falsafiy mazmundagi matnlarni ona tilidan urdu tiliga va urdu tilidan ona tiliga og'zaki va yozma tarjima qilish;

– Urdu zamonaviy tilining qadimgi va o'rta asrlar adabiyoti namunalarini, til tarixi va madaniy an'analarini tushuna olishi uchun mazkur tilning qadimgi va mumtoz shakli haqida tasavvurga ega bo'lishi;

– ilmiy-tahliliy hisobotlar, umumiy ma'lumotlar, ma'lumotnomalar, izohlar yozish tamoyillarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

– mutaxassislik bo'yicha olgan bilimlarini o'rganayotgan xorijiy tilda bayon etish va tanqidiy tahlil eta olish hamda tadqiqot natijalarini namoyon etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

III. Asosiy qism

Urdu tili fanining qisqacha mazmuni:

a) Fanning asosiy predmeti – bu xorijiy tilning adabiy shakli hisoblanadi. Yuqori kurslarda so'zlashuv tiliga xos fonetik va grammatik tarkibotlar ham o'rganilishi ko'zda tutiladi.

b) Fanning nazariy qismi mavzulari:

- urdu tilini o'rganishga kirish
- fonetika
- transkripsiya
- yozuv tizimi
- grammatika (morfologiya va sintaksis)
- leksika, terminologiya va frazeologiya;
- stilistika.

v) Fanning amaliy qismi mavzulari:

• O'qish (dars jarayoni), uy, oila, ish kuni, shahar (O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatdagi shaharlar), dam olish, ob-havo, tarjimai hol, mehmon kutish, telefonda suhbatlashish, aeroportda, bo'xsonada;

• Urdu mamlakatlari va uning diqqatga sazovor joylari;

• Urdu mamlakatlarning tabiiy geografiyasi, aholisi, ma'muriy bo'linishi; tabiiy boyliklari va iqtisodiyoti; qisqacha tarixi; O'zbekiston va Pokistondagi kundalik tashqi va ichki voqea-hodisalar;

• Ustki va oyoq kiyimlar; bozor va xarid; transport; tibbiy xizmat;

• Badiiy adabiyot va folklor; tili o'rganilayotgan mamlakat adiblarining asarlari, xalq ertaklari va hikoyalari;

• Maqollar va matallar; topishmoqlar;

• Hozirgi zamon va mumtoz poetik til xususiyatlari; mumtoz adabiyot namunalari; asarlarning qo'lyozma nusxalari;

• Urdu xalqining maishiy turmushi, madaniyati va urf-odatlari; tili o'rganilayotgan mamlakatning asosiy shahar va qishloqlari;

• Sport, teatr, kino, ko'rgazmalar; diqqatga sazovor joylarga tashrif; samolyotda safar qilish;

• O'zbekiston va urdu mamlakatlarida amalga oshirilayotgan islohotlar (matbuot, internet va televideniya ma'lumotlari asosida) va boshqalar.

Fanning tarkibi va mazmuni:

Talabalarda nutq ko'nikmalarini shakllantirish ko'rsatkichlari va mazmuniga ko'ra 4 yillik ta'lim jarayonida xorijiy tilni o'qitish uch bosqichda amalga oshiriladi:

Boshlang'ich bosqich – birinchi kurs

O'rta bosqich – ikkinchi kurs

Yuqori bosqich – uchinchi va to'rtinchi kurslar.

Boshlang'ich va o'rta bosqichda xorijiy tilning asoslari o'rganiladi; fonetika, yozuv, grammatika, leksika va stilistika asoslari o'zlashtiriladi. Yuqori bosqichda esa urdu tilihaqida olingan bilimlar yanada chuqurroq o'rganiladi, bilimlar takomillashtiriladi. Ona

tilidan urdu tiliga va urdu tilidan ona tiliga yozma va og'zaki tarjima ko'nikmalari shakllantiriladi.

Til o'qitishning boshlang'ich bosqichi:

1. Nutq faoliyatining asosiy turlarini egallash bo'yicha talablar:

Til o'qitishning boshlang'ich bosqichi urdu tilihaqida dastlabki bilimlar berishdan boshlanib, talabalar o'rganilgan o'quv va kundalik hayotga oid mavzular doirasida nutq faoliyatini shakllantirish asoslarini yaratish uchun zarur bo'lgan fonetika, grafika, grammatika, leksika (1-semestr davomida – 700-800 so'z; 2-semestr davomida 800-1200 ta so'z; yil davomida 1500-2000ta so'z o'zlashtiriladi)dan minimal bilimga ega bo'lishadi.

Birinchi kursda urdu tilini mukammal o'rganishning fonetik, grammatik va leksik negizlariga asos solinadi.

Birinchi kurs yakunida talabalar tovush hamda tovush birikmalarining to'g'ri talaffuzi, ohangi, yozuv va transkripsiya tizimi qoidalarini egallab:

- barcha o'tilgan matnlarni, shuningdek, tanish leksik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan notanish matnlarni fonetik nuqtai nazardan to'g'ri va ravon o'qish;

- o'tilgan mavzular bo'yicha savollarga javob berish;

- o'tilgan mavzular bo'yicha o'qituvchi hamda o'rtoqlari bilan suhbatlasha olish;

- tanish leksik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan ayrim jumlar, katta bo'lmagan hajmdagi o'zaro bog'liq matnlarni ona tilidan xorijiy tilga va xorijiy tildan ona tiliga yozma va og'zaki tarjima qilishni bilishlari zarur.

Birinchi kurs yakunida talaba tahsilini tili o'rgangan mamlakatda davom ettira olishi uchun, eng sodda grammatik va leksik ma'lumotlarni o'rgangan tilida bilishi va ulardan foydalana olishi kerak.

📖 O'qish:

Talaffuzning orfoepik qoidalari, so'z va iboralarning bir tekis, ravon o'qish me'yorlari, sintagma tarkibidagi so'zlarning qo'shib o'qilishiga rioya qilgan holda ovoz chiqarib o'qishni bilishi.

Kengaytirilgan sintagmalarni qo'shib talaffuz etish; so'roq gaplar ohangini bilish; gap bo'laklari orasida pauzalar qilish.

O'qish mahorati va ko'nikmalarini egallashning o'rtacha ko'rsatkichi matni to'liq va aniq tushunish, tovushlarni to'g'ri talaffuz etish, sintagmalar o'rtasida pauzalarni to'g'ri qo'yish, so'zlarning ritmik joylashganligi qoidasiga rioya qilishdan iborat.

O'qish mahorati va ko'nikmalari darajasini aniqlash uchun 0,5-0,7 bet hajmdagi matnlar beriladi. O'qish muddati – 20-25 daqiqa. Bu vaqt mobaynida talaba matni o'qishi, uning mazmunini gapirib berishga tayyorlanishi yoki matn yuzasidan savollarga javob berishi kerak.

O'qish tezligi: 1 daqiqada 60-70-so'z. Bu bosqichda talabaning sodda matnlarni jadal o'qish ko'nikmalari belgilanadi.

🗣 Tinglash:

Suhbatdoshining tanish leksik-grammatik material asosida tuzilgan suhbatini tushunish.

Urdu tili materiali asosida tuzilgan katta bo'lmagan xabarlarini tushunish.

O'quv va kundalik hayotga oid mavzulardagi monologik, dialogo-monologik va dialogik tarzda tuzilgan tasviriy va hikoya shaklidagi audiomatnlarni (ko'rmasdan) tushunish.

Tinglash mahorati va ko'nikmalarini egallashning o'rtacha ko'rsatkichi audiomatnni to'liq va aniq tushunishidan iborat.

Tinglash mahorati va ko'nikmalari darajasini aniqlash uchun 0,5 bet hajmdagi audiomatnlar bir yoki ikki marta ko'rmasdan eshitishga beriladi. Talabalarning

audiomatlar mazmunini tushunganligi, matn yuzasidan savol-javob qilish orqali aniqlanadi.

● **Gapirish:**

Monologik nutq

O'quv va kundalik hayotga oid mavzulardagi monologik, dialogo-monologik va dialogik tarzda tuzilgan tasviriy va hikoya shaklidagi o'qilgan yoki eshitilgan maxsus matnlar mazmunini gapirib berish.

Dialogik nutq

Mazkur ta'lim bosqichi uchun tanlab olingan o'quv va kundalik hayotga oid mavzularda nutqiy munosabatlarning bir qolipdagi vaziyatlarida tuzilgan suhbatlarda ishtirok etish. So'zlarning ma'nolarini ona tilini ishlatmay, urdu tilida tushuntirishga harakat qilish.

Gapirish mahorati va ko'nikmalarini egallashning o'rtacha ko'rsatkichi talabalar tomonidan matn mazmunini mantiqan ifodalash, dialogik nutqda - talabalarning belgilangan mavzular bo'yicha aynan suhbat olib borish, dialog orqali qo'yilgan maqsadga erishish, til me'yorlariga rioya qilishdan iborat.

Gapirish mahorati va ko'nikmalari darajasini aniqlash uchun

- 1) O'qilgan yoki eshitilgan matnni gapirib berish;
- 2) Berilgan (o'tilgan) mavzu bo'yicha hikoya tuzish (50-70 so'z hajmida);
- 3) Berilgan mavzu bo'yicha suhbat tashkil etish (3-5 ta gap).

✍ **Yozuv**

Urdu tili yozuv tizimi va orfografik qoidalari asosida yozma mashqlarni bajarish.

O'quv va kundalik hayotga oid mavzulardagi monologik, dialogo-monologik va dialogik tarzda tuzilgan tasviriy va hikoya shaklida maxsus tuzilgan matnlarni eshitib, yozish. Yozish tezligi bir daqiqada 30ta harf.

O'tilgan mavzular bo'yicha o'zining yozma fikrini yozish. O'z xatini erkin o'qish.

Yozish mahorati va ko'nikmalarini egallashning o'rtacha ko'rsatkichi yozilgan matnning berilgan mavzuga aynan o'xshashligi hamda til me'yorlariga mos kelishi bilan belgilanadi.

2. Nazariy mavzular.

1. Xorijiy tilni o'rganishga kirish.

Urdu tili hind-oriy tillar guruhi oilasiga kiruvchi til sifatida. Urdu tili tarixi va rivojlanish bosqichlari. Janubiy Osiyo mintaqasida Pokistonning o'rni va mavqei. Urdushunoslikning buguni va ertasi. Tillarning tasniflanishi. Hind-oriy tillar oilasi haqida ma'lumot. Urdu tili haqida umumiy ma'lumot. Urdu tilining genealogik tasnifdagi o'rni. Urdu tilining tipologik tasnifdagi o'rni. Urdu tilining ilmiy-tarixiy ahamiyati. Hozirgi zamon urdu adabiy tili.

2. Fonetika.

Fonetika. Unli tovushlar. Cho'ziq va qisqa unlilar. Diftonglar. Burun tovushlari. Undosh tovushlar. Talaffuz jihatidan o'zbek tiliga mos yoki yaqin keladigan undoshlar. Nafasli va serebral undoshlar. "N" undoshining turlari. Boshqa tillardan kirib kelgan tovushlar. Urdu tili tovushlarining tasnifi. Urdu tili alifbosi. Faqat arab yoki urdu so'zlariga xos bo'lgan harflar. Urg'u.

3. Yozuv tizimi.

Urdu yozuvining konsonantlik xususiyati. Unlilarning yozuvda ifodalanishi «Hamza»ning yozilish qoidalari, «Abjad» tartibi. Yozuv qoidalari. E'roblar. Harflarning qo'shilishi. Urdu tilida so'zning fonetix xususiyati. "A" unlisining reduksiyaga uchrashi va tushib qolishi. * harfining yozilishi. ك ل harflarining o'zaro qo'shilishi. Nafasli

tovushlarning qo‘shilishi. Yozuvda sof unilarning ifodalanishi. Burunlashgan unilarning ifodalanishi. Grafik belgilar (harakatlar yoki e‘roblar): *zabar, zer, pesh, yotiq va tik madda, sukun, tashdid, hilol, hamza, tarvin*. Ayrim harflarning ishlatilishi. Urdu tilida “ayn” harfli so‘zlarning o‘qilishi. Ayrim tovushlarning yozuvda ifodalanishi.

4. Grammatika.

Grammatika predmeti. Urdu tilining grammatik tuzilishi haqida umumiy ma‘lumotlar. Morfologiya va sintaksisning o‘zaro nisbati.

Morfologiya.

Otlarda jins va son kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi. Murojaat kelishigining yasalishi. Kelishik ko‘rsatkichlari. Qaratqich kelishigi.

Sifat. O‘zgaruvchi va o‘zgarmas sifatlar. Sifat darajalari. Sifatning qiyosiy va orttirma darajalari.

Son. Sanoq sonlar. Tartib sonlar. Jamlovchi sonlar. Kasr sonlar. Ularning gapda o‘zgarishi. Sonlarning ishlatilishi.

Olmosh. Olmoshning turlari. Kishilik olmoshlari. “Log” ko‘plik ko‘rsatkichining kishilik olmoshlari bilan ishlatilishi. Kishilik olmoshlarining vositali o‘zagi. Ko‘rsatish olmoshlarining ma‘nolari va shakllari. So‘roq olmoshlarining ma‘nolari va ishlatilishi. Kelishiklarda turlanishi. Noaniq olmoshlar va ularning kelishiklari. “Koi” olmoshining kelishiklarda turlanishi. Kishilik olmoshlarining kuchaytirma shakllari. Adverbial olmoshlarining kelishiklari.

Fe‘l. Fe‘lning tuslanmaydigan (shaxssiz) shakllari. Infinitiv va uning ishlatilishi. Infinitivning fe‘llik va otlik xususiyatlari. Infinitivning vositali o‘zagi. Infinitivning inkor (bo‘lishsizlik) shakli. Ravishdosh. Ravishdosh - absolyutiv. Uning ma‘nolari. Umumiy tasnifi. *Karte-karte, beythe-beythe, kie bageyr, karte hi, karte vaqt* kabi birikmalar. Fe‘lning shaxsda tuslanuvchi shakllari. “Hona” fe‘lining hozirgi va o‘tgan zamon sodda shakllari. Infinitivning ismiy va fe‘liy sifatleri. Murakkab ot fe‘llar. Murakkab ot fe‘lli frazeologik birliklar. Murakkab intensiv fe‘llar. Qo‘shma potensial fe‘llar. Qo‘shma kompletiv fe‘llar. Qo‘shma kompletiv fe‘llarning shaklan o‘timsizligi. Ularni intensiv fe‘llar bilan taqqoslash, ular o‘rniga intensiv fe‘llarning qo‘llanilishi. Shart va zarurat birikmalari. “Hona”, “parna” fe‘llari va “chahie” ravishi, “zaruri he”, “ki zarurat he” iboralari bilan shart va zarurat birikmalarining yasalishi.

Ort ko‘makchilar (posleloglar): ularning vazifa va turlari: oddiy, qo‘shma va murakkab, birlamchi va ikkilamchi ko‘makchilar.

Sintaksis.

Gap va iboralar.

Iboralarning turlari va ularning birikish yo‘llari.

Darak, so‘roq va undov gaplar. Sodda va qo‘shma gaplar.

Sodda gap. Sodda gapda so‘z tartibi. Gap bo‘laklari: ega, kesim (ot va fe‘l kesim), to‘ldiruvchi (vositali va vositasiz), aniqlovchi (sifatlovchi, nisbiy, qaratqichli va h.z.), hol.

Qo‘shma gap. Bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplar. Qo‘shma gap tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘lanishi. To‘ldiruvchi, aniqlovchi, payt, sabab, shart, to‘siqsiz, ega va kesim ergashgan qo‘shma gaplar. Ko‘chirma va o‘zlashma gap.

5. Leksika.

Urdu tilining lug‘at boyligi. Tub va o‘zlashma so‘zlar. Sinonim, omonim va antonim haqida tushuncha. So‘z yasalishi. Urducha ko‘plik soni. Arabcha ko‘plik soni. Siniq ko‘plik. Urducha va arabcha izofa konstruksiyalari. Fe‘l. O‘timsiz fe‘llardan o‘timli fe‘llarning yasalishi va ularning ma‘nosi. Fe‘l nisbatlari. Orttirma nisbat. Yasalishi, ma‘nosi. Orttirma fe‘llarning majhullik nisbati. Ijzat nisbati. Yasalishi. Ma‘nosi. Sodda otlarning yasalishi. Qo‘shma otlarning yasalishi. Sodda sifatlarning yasalishi. Murakkab

sifatlarning yasalishi. Sodda va murakkab sonlarning yasalishi. Sodda va murakkab ravishlarning yasalishi. Qo'shma olmoshlarning yasalishi. Murakkab fe'llarning yasalishi.

6. Stilistika.

Urdu tili stilistikasi haqida umumiy ma'lumot. Fonetika, grammatika va leksikada adabiy va so'zlashuv tili o'rtasidagi farqliklar. Hurmat ma'nosida ishlatiladigan iboralar.

7. Matnlar mavzusi:

Kundalik hayotga oid mavzular: o'qish, uy, oila, ish kuni, shahar, dam olish, ob-havo, tarjimai hol, mehmonni kutib olish, aeroportda, bojxonada, telefon orqali suhbat.

Mamlakatshunoslikka oid mavzular: o'rganilayotgan mamlakat va uning diqqatga sazovor joylari haqida umumiy ma'lumotlar.

So'zlarning umumiy soni – 1500-2000 ta.

Til o'qitishning o'rta bosqichi:

Til o'qitishning o'rta bosqichi 2 kursdan boshlanadi. Bu muddatda talabalar nutq faoliyatini to'rtta ko'rinishi: o'qish, tinglash, gapirish va yozish bo'yicha yetarli ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan grammatika va leksika bo'yicha kompleks bilimlarga ega bo'ladilar.

1. Nutq faoliyatini asosiy turlarini egallash bo'yicha talablar:

Ikkinchi bosqichning vazifasi – urdu tili grammatikasi, leksikasi va stilistikasi bilan chuqurroq tanishish, birinchi bosqichda olingan bilimlarni mustahkamlashdan iborat, jumladan:

- urdu tilidan ona tiliga va ona tilidan urdu tiliga izchil tarjima qilish;
- urdu tilidan ona tiliga yozma tarjima qilish;
- uncha murakkab bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy mazmundagi matnlarni lug'at yordamida ona tilidan o'rganayotgan tilga yozma tarjima qilish.

📖 O'qish.

Ovoz chiqarmay o'qib, matn mazmunini tushunish, uning komponentlari o'rtasidagi bog'liqlikni anglash.

Ikkinchi kurs yakunida talabalar urdu tilidagi tub va o'zlashma so'zlar tarkibi, so'zlashuv tili xususiyatlari hamda notanish so'zlarni taxminiy ma'nolarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lib, quyidagilarni bilishlari kerak:

- urdu tilidagi matnlarni to'g'ri talaffuzda ravon va xatosiz o'qish;
- urdu tilida uncha murakkab bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy va badiiy matnlarni mustaqil o'qiy olish.

Matnlar tuzilishi:

– monologik, dialogo-monologik va dialogik tarzda maxsus tuzilgan syujetli va tavsifiy matnlar;

– soddalashtirilgan badiiy adabiyot asarlari (soddalashtirish darajasi – asarning asosiy mazmuni sharhi);

– nutqning ilmiy uslubi xususiyatlarini inobatga olib umumkasbiy fanlar bo'yicha maxsus tuzilgan va soddalashtirilgan matnlar;

Matnlar 20% notanish til birliklarini qamrab olgan bo'lishi kerak. Ushbu holatda:

– ularning ma'nolarini ma'lum bir tayanch tushunchalar orqali (kontekst, mazkur til birikmasining sintaktik vazifasidan kelib chiqib va h.z.) chiqarish;

– birinchi o'qishda ularning ma'nolariga ahamiyat bermaslik;

– ularning ma'nolarini lug'at orqali aniqlash vazifalari amalga oshiriladi.

O'qish mahorati va ko'nikmalarini egallashning o'rtacha ko'rsatkichi matnni to'liq, aniq va chuqur tushunish, tovushlarni to'g'ri talaffuz etish, matnning mantiqiy tuzilmasini aniqlash darajasidan iborat. O'qish tezligi bir daqiqada 80-90 ta so'z.

O'qish ko'nikma va mahorati shakllanganligi darajasini aniqlash uchun 300-400 so'zdan iborat matnни o'qish taklif etiladi. Matn bilan ishlashga matnни o'qish, uni gapirib berish, savollarga javob berish kiradi. Matn bilan ishlash vaqtiga matn mazmunini tushunish uchun zarur bo'lgan notanish so'zlarni lug'atdan topish vaqti ham kiradi.

🗨️ **Tinglash:**

monologik, dialogo-monologik va dialogik tarzda bildirilgan og'zaki mulohazalarning umumiy ma'nosini hamda ular tarkibidagi iboralarning o'zaro bog'liqlik holatlarini eshitib tushunish.

Eshittiriladigan matnlar xususiyati:

– monologik, dialogo-monologik va dialogik tarzda tuzilgan syujetli yoki tavsifiy xarakterdagi maxsus tuzilgan matnlar;

– soddalashtirilgan badiiy adabiyot asarlari (soddalashtirish darajasi – asarning asosiy mazmuni sharhi);

– nutqning ilmiy uslubi xususiyatlarini inobatga olib, umumkasbiy fanlar bo'yicha maxsus tuzilgan va soddalashtirilgan matnlar;

Matnlar 5%gacha notanish til birliklarini qamrab olgan bo'lishi kerak, ularning ma'nolarini ma'lum bir tayanch tushunchalar orqali chiqarish yoki ularning ma'nolariga ahamiyat bermaslik (matnning asosiy mazmunini aytib berishga xalaqit bermasa) mumkin bo'ladi.

Eshitilayotgan nutqning tezligi matn xususiyatidan kelib chiqib bir daqiqada 50-60 so'zdan iborat bo'lishi kerak. Bu bosqichda matnни ikki marta eshitishga ruxsat beriladi.

Tinglash mahorati va ko'nikmalarini egallashning o'rtacha ko'rsatkichi matnни to'liq, aniq va chuqur tushunishdan iborat.

Tinglash ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun:

1. bevosita muloqot orqali beriladigan matn (hajmi 1-1,5 bet);

2. radio yoki fonoyozuv orqali eshitiladigan matn (hajmi 0,5 bet) tanlanadi.

Talabalarning audiomatnlar mazmunini tushunganligi matnни gapirib berish, savol-javob qilish orqali aniqlanadi.

🗨️ **Gapirish:**

Monologik nutq:

O'qish va tinglash uchun maxsus tanlangan matnlarni o'qib yoki eshitib, uning mazmuni va asosiy g'oyalarini ona tili va so'ngra xorijiy tilda so'zlab berish kerak.

Talaba o'tilgan mavzular bo'yicha o'z mulohazalarini mustaqil bayon eta olishi; kundalik hayot hamda ijtimoiy-siyosiy mavzularda qisqa axborotlar tayyorlashi; matn stilistikasini aniq bilishi, o'tilgan mavzular doirasida tilning adabiy hamda og'zaki shakllarida fikrlar bildira olishi kerak.

Monologik nutq ko'nikmalari va mahoratiga ega ekanligining ob'ektiv ko'rsatkichi:

1) *matn mazmunini gapirib berishda:* matn mazmuniga mosligi, uning mazmunini to'liq aytib berish yoki berilgan savollarga matndagi turg'un birliklarni qo'llagan holda javob berish; matn g'oyasini aynan shakllantirib berish; mantiqiy bayon etish; til me'yorlariga mos kelish, nutq tezligi.

2) *mavzu bo'yicha shaxsiy axborotini tayyorlashda:* axborotning mavzuga mosligi; mavzuni to'liq yoritib berishi; mulohazalarining biron bir maqsadga yo'naltirilganligi;

3) axborotning mantiqiy tarkibi, til vositalaridan erkin foydalanish darajasi va undan aynan foydalanish; til me'yorlariga mos kelishi; nutq tezligi.

Dialogik nutq

Dialogning turli variantlaridan (surishtiriladigan dialog, fikr yoki taassurotlar bilan almashish bo'yicha dialog, dialog-suhbat) foydalangan holda o'quv va kundalik hayot mavzulariga oid suhbatlarda ishtirok etish.

Dialogik nutq ko'nikmalari va mahoratini qoniqarli egallaganlik darajasi: talabning nutqi berilgan mavzuga mos bo'lishi, dialogdan qo'yilgan maqsadga erishilishi, dialogda mantiqiy bog'liqlik mavjudligi, suhbatdoshini tushunish darajasi, mu'loqotda ahamiyatga ega bo'lmagan til xususiyatlariga xos xatoliklarga yo'l qo'yilishi, nutq tezligi.

Talabalarning ushbu bosqichdagi nutqiy tezligi bir daqiqada 40-45 so'zdan iborat.

Gapirishning ko'nikma va mahorati shakllanganligini aniqlash darajasi: o'qilgan yoki eshitilgan matnni gapirib berish; savollarga javob berishda matnning umumiy mazmunidan kelib chiqib, uning ayrim bo'laklarining asosiy mazmunini aytib berish; yil davomida o'tilgan mavzular yordamida o'zining axborotini tayyorlash (axborot hajmi: 200-300 ta so'z).

✍ Yozuv

O'qish yoki eshitish uchun mo'ljallangan matnni o'qib yoki eshitib, uning xususiyatidan kelib chiqqan holda yozma reja yoki konspekt tuzish.

O'qish yoki eshitish uchun mo'ljallangan matnni o'qib yoki eshitib, uning xususiyatidan kelib chiqqan holda uni yozma bayon etish.

Tanish mavzu bo'yicha hikoya yozish.

Yozuv bo'yicha yetarli darajada ko'nikma va mahorat shakllanganligini aniqlash belgisi:

1. *reja (konspekt) tuzishda*: reja bandlarining matn mazmuniga mosligi; konspektda matnning asosiy mazmunini ochib berganligi; reja bandlari, matndagi asosiy holatlarni to'g'ri shakllantirish;

2. *matnni bayon etishda*: bayonning matn mazmuniga mosligi; matnning asosiy mazmunini to'liq bayon etish; ushbu bosqichda urdu tiliko'nikmalaridan mustaqil foydalanish; til tizimi va me'yorlariga rioya qilish;

3. *tanish mavzu bo'yicha hikoya yozish*: talaba mulohazalarining mavzuga mosligi; mavzuning to'liq yoritilishi; mulohazalarda aniq mantiqiy tizimning mavjudligi; til materiallaridan erkin foydalanish darajasi; hikoyada keltirilgan til vositalarining til me'yorlariga mos kelishi.

Yozuv ko'nikma va mahoratiga erishganlik darajasi matn bo'yicha reja (konspekt) tuzish, matnni yoddan yozib berish, tanish mavzu bo'yicha hikoya tuzish orqali aniqlanadi.

2. Nazariy mavzular.

Fonetika va yozuv.

Tub va o'zlashma so'z hamda iboralarining yozilishi, ularning talaffuzi xususiyatlari. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning fonetik xususiyatlari, talaffuzining urdu tiliga moslashganligi.

Grammatika.

Boshqa tillardan o'zlashgan so'z va iboralarining grammatik xususiyatlari, ularning urdu tili qoidalariga moslashganlik darajasi.

Kam qo'llaniladigan hamda iste'moldan chiqqan fe'l shakllari. Fe'llarning ortirma nisbati. Sifatdosh va masdarlar. Ona tilidagi sifatdoshli birikmalarining urdu tiliga tarjimai.

Yordamchi so'z turkumlari haqidagi ma'lumotlarni bir tizimga keltirish.

Qo'shma gap turlari. Bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar haqidagi ma'lumotlarni bir tizimga keltirish.

Gapning aktual bo'linishi.

Leksika va frazeologiya

Urdu tili leksikasi etimologiyasi. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar xususiyatlari.

Tub so'zlarning yasalishi: affiksatsiya, yarimaffiksatsiya, so'zlarning o'zaro qo'shilishi, transpozitsiya. Nisbiy sifatlar, kasb hunar nomlari, zamon va makon otlari, fe'ldan yasalgan ot va sifatlar. Ot, sifat, fe'llarning old prefiksalar yordamida yasalishi. Ot,

sifat, fe'l negizlarining o'zaro qo'shilishi orqali yasalgan so'zlar. Juft so'zlar. So'zlarning takrorlanishi. Ona tilidagi ot, sifat, sonlarning urdu tiliga tarjimasi xususiyatlari.

Boshqa tildardan o'zlashgan so'zlarning grammatik xususiyatlari.

Stilistika

Adabiy tildagi ayrim tovushlar talaffuzining og'zaki nutqda farqlanishi: umumiy va xususiy qoidalar; ba'zi so'zlarning og'zaki nutqda talaffuz qilinishi xususiyatlari.

So'zlashuv tilidagi grammatik uslublarning adabiy tildan farqlanishi. Ot, sifat, fe'llarning stilistik maqbul shakllarini tanlash; so'zlashuv til sintaksisining ayrim xususiyatlari.

So'zlarning stilistik tabaqalanishi; stilistik sinonimlar, barcha tanish leksikaning stilistik xarakteristikasi.

3. Matnlar mavzusi:

Mamlakatshunoslik va ijtimoiy siyosiy mavzular: tabiiy geografiya, aholi, ma'muriy bo'linmalar; o'rganilayotgan mamlakatning tabiiy boyliklari va iqtisodiyoti; o'rganilayotgan mamlakatning qisqacha tarixi; O'zbekiston va o'rganilayotgan mamlakatda ro'y berayotgan kundalik voqea-hodisalar.

Kundalik hayotga oid mavzular: kiyim-kechak, bozor va xarid; transport, tibbiy xizmat.

Badiiy adabiyot va folklor: urdu tili yozuvchilarining kichik hajmdagi hikoyalari, ertak va masallar.

So'zlarning umumiy hajmi: 3000 ta.

Yuqori (yakuniy) bosqich.

Ta'limning uchinchi bosqichi.

Til o'qitishning yuqori bosqichi 3 kursda boshlanib, 4-kursda davom ettiriladi.

1. Nutq faoliyatining asosiy turlarini egallash uchun talablar

Til o'rganishning uchinchi yilida qo'yiladigan maqsad grammatika, leksika va, ayniqsa, urdu tili stilistikasi hisoblanadi. Shuningdek, ushbu bosqichda urdu tili boshqa tillar bilan qiyoslanib, uning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

□ O'qish.

Ovoz chiqarmay o'qish orqali matnning umumiy mazmuni ("tanishuv o'qish" yoki "umumiy mazmuni qamrab oluvchi o'qish" elementlari) yoki uning ayrim bo'laklari, ayrim holat va vaziyatlar hamda ular orasidagi munosabatlarni ("o'rganib o'qish" elementlari) tushuna olishi; zamonaviy yozuvchilarning badiiy asarlarini; uncha katta bo'lmagan adabiy matnlarni urdu tilida o'qish va taxminan mazmunini tushunish.

Matnlar xususiyati:

1. Mamlakatshunoslik mavzusiga oid tavsifiy va hikoya uslubidagi soddalashtirilgan matnlar;
2. Badiiy matnlar (soddalashtirish darajasi: o'rtacha);
3. Mutaxassislikka oid hamda ijtimoiy siyosiy xarakterdagi soddalashtirilgan va maxsus tanlab olinib, soddalashtirilmagan matnlar (ilmiy ommabop, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha ilmiy matnlar).

Matnlarda 10%gacha notanish til birliklari bo'ladi. Ushbu holatda:

- ularning ma'nolarini tayanch so'z va iboralar (kontekst, mazkur til birikmasining sintaktik vazifasi) orqali aniqlash;
- matn o'qiyotganda ularning ma'nosiga ahamiyat bermaslik;
- ma'nolarini lug'at yordamida aniqlamay, o'qilayotgan matn mazmunini tushunmaslik vaziyatlarini yuzaga keladi.

O'qish ko'nikmalariga qoniqarli ega bo'lganlikning ko'rsatkichi: matn mazmunini to'liq, aniq va chuqur tushunish; matnning tashkiliy mazmuniy tuzilishini aynan tushunganligi; o'qish tezligi.

“o‘rganib o‘qish” bosqichida matn o‘qish tezligi bir daqiqada 50-60 ta so‘z. Tanishib o‘qish uchun matn o‘qish tezligini aniqlashda, notanish so‘zlarni lug‘atdan qidirib topish vaqti ham kiradi (1 ta so‘zga 1 daqiqa hisobidan).

O‘qish mahorati va ko‘nikmalari shakllanganligini aniqlash uchun mutaxassislikka oid, ijtimoiy siyosiy xarakterdagi, shu jumladan, gazeta materiallari, badiiy matnlar, mamlakatshunoslikka oid matnlar tavsiya etiladi. Matn hajmi va o‘qish muddati matn xususiyati, uni chuqur anglab yetishga qurdu belgilanadi (1 betdan 3-4 betgacha).

🔊 Tinglash.

Monologik, dialogo-monologik va dialogik tarzda bildirilgan og‘zaki mulohazalarning umumiy ma‘nosini hamda ular tarkibidagi iboralarning o‘zaro bog‘liqlik holatlarini eshitib tushunish; uncha qiyin bo‘lmagan xorijiy tilning adabiy shaklidagi matnlarni tushunish.

Eshittiriladigan matnlar xususiyati:

1. mutaxassislik yoki ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi tavsifiy ifodaning elementlarini qamrab olgan tushuntirish uslubidagi matn-monolog;

2. mamlakatshunoslikka oid soddalashtirilgan matn-xabarlar;

3. o‘quv badiiy matnlar;

4. radio-matnlar.

Matnlar 5% notanish til vositalarini qamrab olgan bo‘lishi, bir tomondan, ular matnning umumiy mazmunini tushunishga xalaqit bermasligi, ikkinchi tomonidan, ularning mazmunini tayanch so‘z va iboralar orqali bilib olish imkonini yaratishi kerak.

Matnning xususiyati va uni tushunish uchun qo‘yilayotgan talabga ko‘ra tinglanayotgan matnning tezligi bir daqiqada 60-80 ta so‘z bo‘lishi mumkin. Matn bir martoba eshittiriladi.

Tinglash bosqichini qoniqarli egallaganlik darajasi matnni to‘liq, aniq va chuqur tushunganligi bilan belgilanadi.

Tinglash bosqichi ko‘nikmalari va mahoratini egallaganlik darajasi:

1) mutaxassislikka oid yoki umumgumanitar fanlar bo‘yicha dars ma‘ruzasi tayyorlash (hajmi – 2-3 bet);

2) radio yoki fono yozuv orqali eshittiriladigan matn (hajmi – 0,5 - 1 bet).

Ma‘ruzachi tomonidan dars ma‘ruzasining umumiy mazmuni bo‘yicha qilinadigan savol-javoblar yoki yozilgan konspekt orqali matnni tushunganlik darajasi aniqlanadi.

🗨️ Gapirish.

Monologik nutq.

3- kurs yakunida talaba, xorijiy so‘zlashuv tilning adabiy tildan grammatik va leksik farqli tomonlari, belgilangan vaziyatda zarur nutq uslubini qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi, shuningdek, mazkur tilning qardosh tillaridan farqli tomonlari haqida tasavvurga ega bo‘lgan holda:

- belgilangan mavzu bo‘yicha xorijiy tilda axborot berishi yoki doklad qilishi;

- o‘tilgan mavzular bo‘yicha og‘zaki tarjima qilishi;

- OAV matnlarini lug‘at yordamida ona tilidan xorijiy tilga yoki xorijiy tildan ona tiliga tarjima qilishi;

- xorijiy tilda o‘qigan yoki eshitgan matnini ona tilida yozma va og‘zaki bayon qilishi;

- ona tilida o‘qigan matnini xorijiy tilda og‘zaki bayon etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Shuningdek, o‘qish yoki eshitish uchun tayyorlangan matnni mazmunini gapirib berishi; mazkur matnni tahlil qilishi, baho berishi, xulosalar chiqarishi va o‘z mulohazalarini bayon eta olishi kerak.

Monologik nutq ko‘nikma va mahoratini qoniqarli egallaganlik darajasi:

a) *mutaxassislikka oid matn yoki publisistik uslubdagi matnni ifoda etishda*: talabaniq nutqiy bayonining matn mazmuniga mos kelishi; matnning asosiy mazmunini to'liq bayon etishi; bayonning mantiqiyliqi va o'zaro bog'liqligi; til me'yorlariga mos kelishi; nutq tezligi;

b) *badiiy matnlarni talqin etishda*: matn g'oyasini ta'riflash, matn qahramonlari, hodisalari va g'oyasiga o'z munosabatini bildirish; bayonning mantiqiyliqi, til tizimi va me'yorlariga mosligi; nutq tezligi;

v) *matn bo'yicha o'z axborotini tayyorlash*: mavzuni to'liq bayon etish; axborot berishda o'zining shaxsiy fikri orqali maqsadga yo'naltira olishi; axborotning mantiqiy tuzilganligi, til materiallaridan erkin foydalanish va uni aynan ishlata olishi; til me'yorlariga mos kelishi, nutq tezligi.

Dialogik nutq.

Maishiy hayot, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy mavzularda dialogning turli shakllaridan foydalanib, ishtirok eta olish (dialog savol-javob; dialog-fikr, taassurot almashish; dialog-suhbat):

- maishiy hayot, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi berilgan mavzu bo'yicha xorijiy tilda mukammal suhbat olib borish;

- til sohiblari bilan oddiy mavzularda suhbat olib borish.

Dialogik nutq ko'nikmalari va mahoratini qoniqarli egallaganligining ob'ektiv ko'rsatkichi: talaba nutq muomalasining berilgan vaziyatga mos kelishi; dialog maqsadiga erishish, dialog turiga qurdu, dialog olib borishning turli uslublaridan foydalana olishi; ahamiyatga ega bo'lmagan tilga xos kommunikativ xatolarning yo'qligi, nutq tezligi.

Talabalarining ushbu ta'lim bosqichidagi nutq tezligi bir daqiqada 50-60 ta so'z. Gapirish ko'nikmalari va mahorati shakllanganlik darajasini aniqlash uchun o'qilgan matnni asosiy g'oyasini ajratib, uni isbotlab, qisqacha gapirib berish; matnda ko'tarilgan muammolar hamda yil davomida o'tilgan mavzular bo'yicha dialog-monolog tarzida bayon etish (bayon hajmi 300-400 ta so'z).

Yozuv.

Mutaxassislik yoki umumgumanitar sikldagi fanlar bo'yicha o'quv ma'ruzasini eshitib, yoza olish (konspekt qilish).

Mutaxassislik yoki ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi matnlar uchun sodda va murakkab reja tuzish, shuningdek, qisqa va mukammal konspekt yoza olish;

O'tilgan mavzu bo'yicha yozma bayon tuzish yoki o'qilgan yoki eshitilgan matnni tahlil qilish, baholash, xulosalar berish;

Yozuv ko'nikma va mahoratini egallaganligining ob'ektiv ko'rsatkichi:

a) *o'quv ma'ruzasini konspekt qilishda*: konspektning ma'ruzaning asosiy mazmuniga mos kelishi; konspektda ma'ruzaning asosiy mazmunining aks etganligi; bayonning mantiqiyliqi, til me'yorlariga mos kelishi;

b) *reja tuzishda*: kichik mavzularning izchil va o'zaro bog'liqligining rejada aynan aks etishi;

v) *yoza matnni konspekt qilishda*: reja bandlari bilan konspekt bo'limlarining mos kelishi; umumiy va xususiy holatlarning namoyon etilganligi; matnni siqishtirishning turli vositalarini qo'llash; so'z va iboralarni boshqa obrazli so'zlar bilan ifodalash, ayrim so'zlarni qisqartirib yozishning grammatik va leksik uslublarini qo'llash orqali matndagi muhim xabarlarini umumlashtirish; bayonning mantiqiyliqi va o'zaro bog'liqligi; til me'yorlariga mos kelishi; to'liq konspekt yozishda birlamchi matnni 1/2 hajmga qisqartirish va qisqa konspekt yozishda uni 1/4 hajmga qisqartirish;

g) *shaxsiy axborotini tuzishda*: mavzuga mosligi; mavzuning to'liq ochib berilganligi; shaxsiy fikrini ifodalashda namoyon bo'ladigan maqsadga yo'naltirilganligi; bayonning

semantik tuzilishi, yozma muloqot shartlariga mos keluvchi leksik-grammatik vositalardan foydalanilganlik.

Yozuv ko'nikma va mahoratining shakllanganligini aniqlash uchun: o'qituvchi tomonidan mutaxassislik yoki umumgumanitar mavzularda o'qilgan ma'ruzalarni yozish; ma'ruza matni tarkibida 3% notanish so'zlarning mavjud bo'lishi, matn hajmi 2-3 bet, eshittirish tezligi bir daqiqada 50 ta so'z, eshittirish darajasi bir marotaba.

Sodda va murakkab reja tuzish; mutaxassislik yoki ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi bosma matnning qisqa va to'liq konspekti; matn tarkibida 5%gacha notanish so'zlar bo'lishi; mutaxassislik bo'yicha matn hajmi 2-3 bet, ijtimoiy-siyosiy matn hajmi 3-4 bet. Berilgan mavzu bo'yicha bayon (insho) yozish 2-3 bet.

2. Nazariy mavzular.

Urdu tili grammatikasining barcha bo'limlari haqidagi ma'lumotlarni bir tizimga keltirish.

So'zlashuv tili bilan adabiy til o'rtasidagi morfologik tafovutlarni tizimga keltirish.

Urdu tili so'zlashuv uslubining sintaktik xususiyatlari: iboralar, sodda va qo'shma gaplarning tuzilish xususiyatlari.

Urdu tili leksikasini stilistik differensiallash: xolis, kitobiy, og'zaki va so'zlashuv tiliga xos uslublar, stilistik sinonimiya.

Urdu tilidagi ot, sifat, fe'l so'z turkumlariga kiruvchi ayrim ko'p ma'noli so'zlar semantikasi.

Urdu tilidagi frazeologik birliklarning asosiy turlari: ismiy va fe'liy frazeologizmlar, frazeologizm-gaplar, maqol va matallar. So'zlashuv, matbuot, rasmiy hujjatlar va epistolyar (maktublarga xos) uslubidagi ayrim nutq qoliplari.

Urdu tilining turdosh tillar bilan asosiy fonetik tafovutlari: fonotizim va fonemalarning fonetik ishlatilishidagi tafovutlar, fonemalarning o'xshashligining umumiy va xususiy qonuniyatlari.

Urdu tilining turdosh tillar bilan asosiy grammatik (morfologik va sintaktik) tafovutlari: morfologik shakllar va sintaktik tarkibotlar, ularning mavjudligi yoki yo'qligining til xususiyatiga ta'siri.

Urdu tilining turdosh tillar bilan ayrim leksik tafovutlari.

3. Matnlar mavzusi

Pokiston xalqining maishiy hayoti, madaniyati va urf-odatlarini. Pokistonning asosiy shaharlari va provinsiyalari haqida ma'lumot.

Sport; teatr va kino; ko'rgazmalar, diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish; samolyotda safar qilish.

O'zbekiston va Pokiston hamda mintaqadagi kundalik voqealar (matbuot materiallari asosida).

Badiiy adabiyot va folklor: Pokistondagi hozirgi zamon yozuvchilarining o'rtacha qiyinchilikdagi hikoyalari, so'zlashuv tili uslubidagi folklorga oid prozaik matnlar; pokistonlik yozuvchilarning qiyin bo'lmagan prozaik asarlari.

So'zlarning umumiy hajmi – 4000 ta.

Til o'rganishning to'rtinchi bosqichi:

Maqsad:

4 kursda til o'rgatishning asosiy maqsadi – urdu tilining grammatikasi, leksikasi va stilistikasi bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash, shuningdek, urdu tilileksikasi bilan tanishishni davom ettirish, og'zaki nutq ko'nikmalarini takomillashtirish.

4 kurs yakunida talaba:

- erkin va tanish mavzularda urdu tilida muloqot olib borish;
- ikki tomonlama tarjima qila olish (sinxron tarjima)
- urdu tilida siyosiy, iqtisodiy va madaniy mavzularda doklad qilish;

- matbuot xabarlarini ona tilidan urdu tiliga tarjima qilish;
- urdu tilidagi zamonaviy badiiy adabiyot asarlarini mustaqil o'qish;
- urdu tilining so'zlashuv til elementlari mavjud o'rtacha qiyinlikdagi matnlarni o'qish va tarjima qilish;
- urdu tilining so'zlashuv til elementlari mavjud adabiy tildagi og'zaki nutqni tushunish;
- urdu tili egalari bilan suhbat olib borish malakalariga ega bo'lishi kerak.

2. Nazariy mavzular:

Urdu tili amaliy grammatikasi, leksikasi, semantikasi va stilistikasi bo'yicha barcha ma'lumotlarni umumlashtirish va qaytarish;

Urdu tili so'z boyligining boshqa tillar bilan leksik tafovutlari;

Urdu tili so'zlashuv tilining ayrim fonetik va grammatik xususiyatlari.

3. Matnlarning mavzusi

Pokistonning maishiy hayoti, madaniyati va urf-odatlari, tarixi.

Matbuot materiallari asosida dunyoda, sharq mamlakatlarida, O'zbekistonda ro'y berayotgan siyosiy voqealar sharhi.

Badiiy adabiyot va folklor: Pokiston adiblarining prozaik va dramaturgik asarlari, urdu tilidagi so'zlashuv tili uslubidagi folklor matnlar.

Umumiy so'z boyligi hajmi: 5000 ta.

IV. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Kurs ishlarining namunaviy mavzulari uslubiy ko'rsatmada ko'rsatilgan mavzular mazmuni asosida belgilanib, ularni bajarish bo'yicha uslubiy maslahatlar va adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan mustaqil uslubiy qo'llanma sifatida tayyorlanadi. Kurs ishini bajarishda tanlangan mavzuning dolzarbligi, unda yoritiladigan masalalarning davr talabiga mosligiga e'tibor qaratis, kurs ishini bajarish va rasmiylashtirish bo'yicha qo'yilgan talablarga amal qilishi lozim. Kurs ishi mavzulari sonini har bir talaba uchun 4-5 ta miqdorda tayyorlash tavsiya etilib, muayyan sharoitlarni hisobga olgan holda ularning tarkibiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Kurs ishi tarkibi kirish, 4 yoki 5 ta savol, xulosa va takliflar hamda ilovalardan iborat bo'lishi tavsiya etiladi.

Ishchi o'quv dasturida kurs ishlarining aniq mavzulari beriladi.

V. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba "Asosiy sharq tili" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

- uy vazifalari(mashqlar, matnlarni tarjima qilish, yangi so'z va iboralarni yodlash, savollarga javob berish va b.)ni bajarish;
- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat, slayd-taqdimot tayyorlash;
- badiiy asarlar ustida ishlash;
- test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- kurs ishini bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi uchun materiallar to'plash va boshqalar.

Uyga berilgan vazifalarni bajarish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola (tezis) va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy topshiriq, keys-stadilar yechish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

Ishchi o'quv dasturida mustaqil ta'limning aniq mavzulari beriladi.

VI. Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, sharq tili grammatikasiga oid bo'lgan ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron didaktik texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Dars jarayonida multimediali xonalar, lingafon xonolari, video, audio apparatura vositalari, televizordan, xususan, tegishli tartibdagi video, audio tasmlar, SD va DVD disklar, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tavsiya etiladi.

Darslik, o'quv qo'llanma, o'quv uslubiy majmua, tarqatma materiallar, lug'atlar, uslubiy qo'llanmalar taqdim etiladi.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar

1. "Urdu tili" darsligi.(Hammualiflikda) Toshkent., 2018
2. Asani A.S., Hyder S.A. "Let's Study Urdu" ("Давайте изучать язык урду"), Yale University Press, UK., 2008
3. Tej K. Bhatia, Ashok Koul - Colloquial Urdu – 2013.
4. Muxammedjanov R.M., Muxammedjanova V.A. "Urdu tili darsligi" – T., 2014.
5. Давидова А.А. Учебник языка урду. М., 2003

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b. (Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан).

9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b. (Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития и благополучия народа).
10. Мухаммеджанов Р.М., Мухаммеджанова В.А. “Учебник языка урду”.Т., 1992
11. Xolmirzaev T., Xolmirzayeva M. “Urdu tili xrestomatiyasi”.Т.2005
12. Abdurahmonova M.X. “Urdu va hindiy tillari qo‘shma gap sintaksisi” Т.2002 (o‘quv qo‘llanma).
13. Shomatov O.N. Hindiy tili me‘yoriy grammatikasi. Т., 2010. (o‘quv qo‘llanma).
14. Abdurahmonova M.X. “Urdu tili leksikologiyasi” Т.2018. (o‘quv qo‘llanma).
15. «Urdu ki kitaab» 1-12 sinflar uchun. Islamabad. 2010. (darslik).
16. Abdulhaq. Qavaide-urdu. Dehli, 2004. (monografiya)
17. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985. (monografiya)
18. Дымщиц З.М. Грамматика языка урду. М., 2001

Internet saytlari

19. www.urduzaban.com
20. www.dailyjang.com
21. www.urduliterature.com
22. www.dailynewa-evaqt.com
23. www.hindurdu.com
24. www.urdustan.com
25. www.languageinindia.com
26. www.tashgiv.uz ;
27. www.zivonet.uz ;
28. www.bilim.uz;
29. www.edu.uz;
30. www.gov.uz

